



KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqa boshlagan

№3 (813), 2026-yil 16-fevral

facebook.com/nkmkofficial

t.me/ngmkofficial

instagram.com/nkmk.official

www.ngmk.uz



■ Mir Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligiga


BUYUK SHOIR SIYMOSIGA EHTIROM KO'RSATILDI

Har yili Hazrat Mir Alisher Navoiy tug'ilgan kun – 9-fevral respublikamizda adabiyot va ma'naviyat bayrami sifatida keng nishonlanadi. Bu buyuk shoir va mutafakkir, davlat arbobi bo'lgan ulug' bobokalonimizga cheksiz hurmat va ehtiromning yorqin namunasidir.

Alisher Navoiyning nomi jahon adabiyotining buyuk daholari qatorida munosib o'ringa ega. U o'zining besh dostonidan iborat "Xamsa" asari bilan turkiy tilni she'riyat osmoniga ko'tardi. 9-fevral kuni viloyat markazidagi Alisher Navoiy nomidagi markaziy istirohat bog'i erta tongdan she'riyat ixlosmandlari bilan gavjum bo'ldi. Istirohat bog'iga davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, professor-o'qituvchilar, ijodkorlar, yozuvchi va shoirlar, talaba va o'quvchilar tashrif buyurdilar.

Bog' markazining Hazrat haykali o'rtasidagi maydonida Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligiga bag'ishlangan tadbir o'tkazildi. Tadbir ishtirokchilari buyuk shoir va mutafakkir haykali poyiga gulchambarlar qo'ydilar. Marosimda NKMK jamoasi vakillari va yoshlari ham ishtirok etdi. Tadbir "Farhod" madaniyat saroyida davom etdi.

Hazrat Mir Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi munosabati bilan adabiy-madaniy tadbirlar viloyatning boshqa shaharlari, oliy o'quv yurtlari, bilim maskanlarida ham tashkil etildi.



ADABIY-MA'RIFIY ANJUMAN

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi munosabati bilan Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti majlislar zalida o'tkazilgan adabiy ma'rifiy anjuman "Navoiyni anglash – o'zlikni anglash" deb nomlandi.

"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati va kombinat xodimlari kasaba uyushmasi Kengashi tashabbusi bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti hamda Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti hamkorligida tashkil etilgan mazkur tadbir viloyat maqom ansambli ishtirokchilarining buyuk shoir g'azallariga bastalangan kuy-qo'shiqlari bilan boshlandi. Shundan so'ng "NKMK" AJ Boshqaruvi raisi – Bosh direktori Q.Sanaqulovning mavzuga oid ma'ruzasi tinglandi.

Notiq ta'kidlaganidek, so'nggi yillarda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Alisher Navoiy merosini keng o'rganishga qaratilgan muhim qarorlar qabul qilinmoqda. Muhtaram Prezidentimiz tomonidan bundan bir yil ilgari, ya'ni, 2025-yil 7-fevralda qabul qilingan "Buyuk shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy ijodiy merosini yurtimiz va jahon miqyosida keng targ'ib qilish hamda Navoiy viloyatida "Alisher Navoiy yili"ni yuqori darajada o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida Hazrat Alisher Navoiy merosini o'rga-

nish ishlarini yanada yuksak bosqichga ko'tarish maqsadida yurtimiz va chet el-larda tizimli asosda ilmiy izlanishlar olib borish va ularning natijalarini e'lon qilish, ushbu mavzuda yangi ilmiy, badiiy va ommabop asarlar yaratish, xorijdagi navoiyshunos olim hamda ijodkorlarning asarlarini o'zbek tilida nashr etish kabi vazifalar qo'yildi. Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofot ta'sis etilgani, shoir nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyati tobora takomillashib, xalqaro nufuzi oshib borayotgani, chet ellardagi muzeylardan Navoiy asarlarining qo'lyozmalarini olib kelish bo'yicha ishlar olib borilayotgani qaror ijrosining amaliy natijalaridir.

Jahon adabiyoti va tafakkuri tarixida o'chmas iz qoldirgan Alisher Navoiyning serqirra ijtimoiy-siyosiy, ijodiy, ilmiy-ma'rifiy faoliyati, boy adabiy merosi asrlar davomida yuksak insonparvarlik, Vatanga sadoqat, adolat va ezigulik timsoli sifatida barchaning e'tiborini tortib kelmoqda. Alisher Navoiyning xalqlar o'rtasida tinchlik va do'stlikni mustahkamlashga chorlaydigan g'oya va qarashlari hozirgi tahlikali va shiddatli

davrda yanada katta ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Yangi O'zbekistonda uchinchi Renessans poydevorini barpo etish jarayonlarida Alisher Navoiy asarlari har birimiz uchun bitmas-tuganmas kuch-g'ayrat va ilhom manbai bo'ladi. Dunyo adabiyoti-da Alisher Navoiy bilan tenglashadigan ijodkor kam topiladi.

Alisher Navoiy ijodi bamosoli hikmatlar ummonidir. Biz uni qanchalik ko'p o'rgan-sak, tafakkurimiz shunchalik quvvat oladi, ma'naviyatimiz shu qadar yuksaladi. Buyuk mutafakkir bobokalonimiz asarlari har jihatdan yuksak tarbiyaviy ahamiyatga, teran falsafiy mazmunga ega.

Ma'lumki, Hazrat Navoiy hayoti va ijodi mahalliy hamda xorijiy olimlar tomonidan har tomonlama chuqur tadqiq etilgan va bu ish davom etmoqda. Bu borada olimlarimiz, ijodkorlarimiz, qo'laversa, barcha ziyolilarning xalqimiz va kelajak avlod oldida qarzi ko'p va buni chuqur his etamiz. Kombinat ham Alisher Navoiy bobomizni ulug'lash va ijodini keng targ'ib etishga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Jumladan, kombinat homiyligida allomaning 580 yilligiga bag'ishlab, Navoiy g'azallari, ruboiylaridan saralangan "Quyoshliq istasang, kasbi kamol et..." kitobi 15 ming nusxada chop etildi.

Uning mantiqiy davomi sifatida kombinat tomonidan buyuk mutafakkirning 585 yilligiga bag'ishlab akademik Shuhrat Sirojiddinovning "Alisher Navoiy hayot yo'li" kitobi o'zbek va qozoq tillarida nashr etildi. Mazkur asar kombinat xo-

dimi Aqshagul Tulegenova tomonidan qozoq tiliga o'g'irildi. Bu kitoblar yurtimiz universitetlari va maktablariga hamda Qozog'istondagi qardoshlarimiz, shuningdek, respublikamizdagi universitetlarning ta'limi qozoq tilida olib borilayotgan fakultetlari va umumiy o'rta ta'lim maktablariga yetkaziladi.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti kafedra mudiri, filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborov anjumandagi ma'ruzasida akademik Shuhrat Sirojiddinovning "Alisher Navoiyning hayot yo'li" kitobi misolida shoirning tarjimai holiga doir, manbalarga asoslangan yangi fakt va ma'lumotlar haqida batafsil to'xtalib o'tdi. Shuningdek, adabiy-ma'rifiy anjumanda Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori, filologiya fanlari doktori, akademik Shuhrat Sirojiddinovning "Alisher Navoiy hayot yo'li" kitobining yarialish tarixi" mavzusidagi ma'ruzasi ham tinglandi.

Anjuman yakunida Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti talaba-yoshlari yoddan o'qigan Navoiy g'azallari, Navoiy shahridagi 11-umumta'lim maktabi o'quvchisi Zarina Po'latova Navoiyning "Kulmadang, to ko'zlarimni..." g'azalini ingliz tilida o'qigani tadbirga o'zgacha zavq bag'ishladi. Adabiy-ma'rifiy tadbir ishtirokchilarida Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqidagi bilimlarini oshirganligi bilan yaxshi taassurot qoldirdi.

Nizomiddin SADRIDDINOV.
Siroj ASLONOV olgan suratlar.

■ O'quv-amaliy seminar

FAOL YOSHLARNI BIRLASHTIRGAN TADBIR

Kombinat tizimida 30 yoshgacha bo'lgan 12 ming nafardan ortiq yoshlar faoliyat olib bormoqda. Ularni bir maqsad sari yo'naltirish, ijtimoiy siyosiy jarayonlarda faol ishtirokini ta'minlash maqsadida har yili o'quv-amaliy seminarlarini tashkil etish an'anaga aylanib bormoqda.

Joriy yilning 5-8-fevral kunlari NKMK yoshlar yetakchilari Kengashi va kasaba uyushmasi Kengashi hamkorligida tashkil etilgan navbatdagi tadbir Qiziltepa tumanidagi "To'dako" dam olish maskanida joylashgan Xalqaro shaxmat maktabi-da bo'lib o'tdi.

Seminarda Toshkent xalqaro universitetining "Ijtimoiy fanlar va ta'lim" kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) N.Norqulova trening mashg'ulotlarida "Xodimlarni motivatsiyalash", "Taym menejment", "Stressmenejment" kabi mavzulardagi mahorat darslarini o'tdi. Kombinatning Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha direktori X.Raupov "Prezidentimizning Oliy Majlis va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomasining ahamiyati" mavzusida fikr-mulohazalarini bildirdi. Jumladan, Murojaatnomada belgilangan ustuvor yo'nalishlar, yoshlar oldidagi vazifalar hamda ularning mamlakat taraqqiyotida faol ishtirok etishi masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Kombinat Tashkiliy rivojlanish bo'limi bosh mutaxassisi M.Mirzajonov tomonidan "Shaxsiy sama-



radorlik va jamoa bilan ishlash" mavzusida trening o'tkazildi.

Tadbirning uchinchi kunida "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ Boshqaruvi raisi – Bosh direktori Quvondiq Sanaqulovning yoshlar bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuvda kombinat rahbari Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati, yaratib berilayotgan imkoniyatlar, NKMK yoshlari zarimasidagi ulkan mas'uliyat va vazifalar yuzasidan fikr-mulohazalari va tavsiyalarini bildirdi.

– Muhtaram Yurtboshimiz rahnamoligida yoshlarimizga ta'lim olish, xorijiy tillarni o'rganish, kasb egallash, hayotda o'zlarining munosib o'rinlarini topishlari uchun barcha zaruriy sharoitlar yaratib

berilmoqda. Yosh avlodga ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik ertamiz egalarining faolligini oshirish hamda ularning orzularini ro'yobga chiqarishga xizmat qilayotgani, ayni haqiqatdir. Bunga javoban, har biringiz o'z oldingizga katta maqsadlarni qo'yib, ilm cho'qqilarini egallash, yetakchilik qobiliyatini ko'rsatishdan aslo to'xtamasligingiz kerak. Kombinat yoshlari ishlab chiqarish bo'ladimi, ilm-fan bo'ladimi, albatta, har jabhada yetakchi bo'lishiga ishonaman. Yana bir bor ta'kidlayman: sizlarning har qanday kreativ g'oya va tashabbuslaringiz hamda loyihalaringizni qo'llab-quvvatlashga tayyorman, – dedi o'z chiqishida Q.Sanaqulov.

Uchrashuvda yoshlar yaratilayotgan keng imkoniyatlardan unumli foydalanib, o'zlarini to'la

namoyon etishga ishonch bildirdilar. Seminarning to'rtinchi kunida "Yilning eng yaxshi yetakchisi" tanlovi g'oliblari aniqlanib, birinchi o'rin 3-gidrometallurgiya zavodi boshlang'ich tashkilot yoshlar yetakchisi Dilafro'z Sattorovaga nasib etdi. Ikkinchi o'ringa Axborot-texnologiyalar boshqarmasi Uchquduq markazi boshlang'ich tashkilot yoshlar yetakchisi Ayxan Chatayeva hamda uchinchi o'ringa Shimoliy kon boshqarmasining Idoraviy-harbiylashgan qo'riqlash otryadi boshlang'ich tashkilot yoshlar yetakchisi Nodirbek Tuyev munosib ko'ril-di. Seminarda ishtirok etgan faol yoshlar yetakchilari diplomlar bilan taqdirlandi.

– Ushbu o'quv-amaliy seminardan biz o'zimizga kerakli bo'lgan ko'plab ma'lumotlarga ega

bo'ldik. Yoshlarda kitobxonlik madaniyatini oshirish zarurligi haqida dolzarb fikr-mulohazalar bildirildi. Mamlakatimizda yoshlarga alohida e'tibor berilayotgani, ularning haq-huquqlari himoya qilinayotganligi aytib o'tildi. O'quv-amaliy seminar ishtirokchilari baxs-munozaralarda bugungi kunda yoshlar oldida turgan vazifalar, ularni bajarish har birimizning zimmasiga mas'uliyat yuklashini ta'kidladilar. Kelgusida bunday amaliy tadbirlar muntazam o'tkazilishi haqida kelishib olindi. Xullas, seminardan bir olam taassurotlar bilan qaytdik, – deydi Shimoliy kon boshqarmasi yoshlarning bir-lamchi tashkilotlari yetakchisi Feruz G'ofurov.

Azamat ZARIPOV.

■ Mir Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligiga

Alisher Navoiyning XVI asrda Mahmud Muzahhib tomonidan yaratilgan portreti, hozir Oston Quds Razaviy (Mashhad, Eron) muzeyida saqlanmoqda.



Navoiy merosini muazzam ummonga oʻxshatishadi. Zangori osmon ostida chayqalib turgan bahri muhitning shiddatkor toʻlqinlari quyoshning munavvar nurlari bilan qorishib, borliqqa yorqin ifor taratadi. Koʻzni qamashtirib, koʻkka oʻrlayotgan tomchilarning har birida ilohiy nur jilvalanadi. Navoiy merosi ana shunday boqiy, maftunkor. Bu tabarruk zot ijodini oʻrgangan kishilarning qayta-qayta hayratga tushaverishi sababi ham shunda. Har bir tamaddunning oʻz bunyodkorlari boʻlar ekan. Yaratganning bandalariga marhamatimi, yo shunchaki tasodifmi, tarix zarvaraqalarida uygʻonish – insoniyatning oltin asri nomi bilan qayd etilgan XV asrda – aynan Alisher Navoiy yashab ijod qilgan davrda dunyoning narigi chekkasida yana bir daho ijodkor (ne ajabki, uning nomida ham sher bor) Leonardo da Vinchi (1452-1519) yashayotgan edi. Rassom, olim, shoir, haykal-tarosh, muhandis, ixtirochi, arxitektor, musiqachi boʻlgan italiyalik dahoning hayoti, qilgan kashfiyotlari juda koʻp marta tadqiq etilgan.

Navoiyning hayratomuz ixtirolari

TELEVIZOR VA ROBOTLAR HAQIDAGI TASVIRLAR

Barchaga yaxshi maʼlum, 1928-yilda Toshkentda ixtirochilar B.Grabovskiy va I.Belyavskiyler elektr-nur yordamida harakat qilayotgan tasvirni bir joydan uzatadigan va qabul qiladigan apparat yaratib, uni muvaffaqiyatli sinovdan oʻtkazdilar. Yurtimiz poytaxti televideniye vatani sifatida tan olindi. Ammo Navoiy ulardan ham ancha yillar oldin buni koʻra olgandi. Soʻzimiz isboti uchun "Farhod va Shirin" dostonidan olingan quyidagi misralarni keltirish kifoya:

Gʻaroyib koʻp huvaydo boʻlgʻusidir,
Bas, anda shaki paydo boʻlgʻusidir...

Koʻrunib har zamone — koʻzga bir shaki,
Koʻz olgʻoch — boʻlgʻusidir ... oʻzga bir shaki!..

Chu boʻldi jilvagar oshkor yuz navʼ,
Anga ham boʻlgʻusi — timsol yuz navʼ!..

Maʼlumki, ekranda kadrlar bir sekunda 24 marotaba almashadi va jonli tasvir koʻrinadi. Shaki bu kadrlar desak, ularning almashinuvidan turli-tuman gʻaroyibotlar, jonli suratlar, rangin qiyofalar silsilasi namoyon boʻladi. Eng ajablanarlisi, Navoiy bu qurilmani ham oʻz holicha "Oynai jahon" deb nomlaydi. Farhod uzoq Arman oʻlkasining malikasi Shirinning husnu jamolini aynan shu vosita orqali koʻrib, unga mahliyo boʻlib qoladi. "Farhod va Shirin" dostonini mutolaa qilishda davom etsak, bugun tilimiz ancha kelishib qolgan XX asr yaratqlaridan biri — robotlar haqidagi satrlarga ham koʻzimiz tushadi:

Boʻlur darvoza ichra oshkoro,
Temur jismiki qilmish paykar oro.

Erur odamgʻa monandu mushobih,
Ilgida temurdan yoy qilib zih.

Va lekin ushbu paykar roy to farq,
Boʻlib oʻtdek temur oʻrchin aro gʻarq.

Maʼnosi shunday: "U odamga juda ham oʻxshar, qoʻlida oʻtkir oʻq tortilgan temir yoyni ushlab turar edi. Boshidan oyoq sovutga oʻralgan bo temir odam ich-ichidan yonib turardi".

HAZRAT NAVOIY VA... ESKALATOR!

"Xamsa"ning toʻrtinchi dostoni "Sabʼai sayyora"da eskalator va lift haqidagi farazlarni oʻqigan mashhur shahrshunos olim Bertels ham hayrat ogʻushida qolganini yashirmagan ekan.

Poyalar maqdamida boʻlgʻay past,
Aylagay bir-biri yuziga nishast.

Chun sekiz poya qatʼ boʻldi tamom,
Aylagach shoh oʻz yerida maqom.

Yana ul poyalar baland oʻlgʻay,
Taxtidin shoh bahramand oʻlgʻay.

Kim, qayon shah boʻlur nishotangez,
Oz ishorat bila yugurgay tez.



Maʼnosi shunday: "Shoh bu taxtga chiqadigan boʻlsa, pillapoyalar uning qadam qoʻyishi uchun pasayib, bir-birining ustiga yotadi. Shoh shu 8 poyaning hammasini bosib oʻtib, oʻz taxtiga oʻtirgach, u zinalar yana baland koʻtariladi. Shoh qay tarafga qarab oʻtirishni xohlasa, oʻzgina ishorat kifoya. Taxt oʻsha tarafga qarab aylanadi". Bu yerda keyingi asrlarning, yanayam aniqrogʻi — 1892 yilda amerikalik kashfiyotchi Jessi Reno tomonidan yasalgan eskalator haqida gap ketayotganiga shubha yoʻq.

BATISKAF IXTIRO QILINISHIDAN 463 YIL OLDIN...

"Xamsa"ning beshinchi dostoni boʻlmish "Saddi Iskandariy" ham bunday timsol va majozlar bilan toʻla. Masalan, Iskandar-niing suv tubiga tushish uchun shishadan maxsus noyob apparat yasatgani hikoya qilinadi: Qilib suv tubin koʻrmak andishaye,
Hamul hikmat ahli yasab shishaye.

Kirib shishagʻa ranju tashvir ila,
Aning ogʻzin berkitib qiyr ila,

Tanobeki, boʻlgʻay necha ming qari,
Eshilgan, kelur chogʻda daryo sari.

Bir uchin qilib shisha davrigʻa rust,
Yana bir uchun tutturib elga chust.

Bu yangligʻ qilib choʻkti daryo quyi,
Ani qaʼrigʻa chekti daryo suyi.

Gʻaroyibiki, daryoda boʻlgʻay nihon,
Anga zohir oʻldi jahon dar jahon.



Maʼnosi quyidagicha, "Suv tubin koʻrish orzusi (Iskandarda) tugʻildi. Olimlar tez orada shishadan bir idish yasadilar. Iskandar xavf-xatar bilan shisha ichiga kirdi. Uning ogʻzini mum va poʻkak bilan mustahkamladilar. Dengiz suvi uni oʻz qaʼriga tortib ketdi. Shunday qilib, suv tubida nomaʼlum boʻlmish butun gʻaroyibotlar boshdan oyoq namoyon boʻldi". Tasavvur qudratini qarangki, Navoiy — batiskafni ixtiro qilgan (1948-yilda) shveysariyalik olim Ogyust Pikardan roppa-rosa 463 yil oldin suv tubiga tushuvchi qurilma, uning shakli, qismlari haqida yozib qoldirayapti.


Navoiy asarlarida bugungi zamonaviy avtomobillarning motori-dvigateliga oʻxshash narsa haqida ham soʻz ketadi:

Ichinda namudur andoq tilsim,
Ki ul hufra kunjida bir roʻy jism.

Kishi hayʼati birla junbushnamoy,
Ul otashgoh ichra harorattifoy.

Yasab olida dam bila koʻraye,
Hamul koʻra jismida moshuraye.

Chu ul koʻrau damgʻa aylab sitez,
Bu moshura nafxi qilib shula tez.



Satrlarning nasriy bayoni shunday: "Tilsim chuqurning bir burchagiga joylashtirilgan boʻlib, koʻrinishidan odamning gavdasiga oʻxshaydi. Oʻsha kishining haybatiga oʻxshagan tilsimning qaynashidan oʻtxonada harorat hosil boʻladi. Oʻshaning yonida bir dam bilan qoʻra bor, shu qoʻraga havo beradigan bir nay oʻrnatilgan. Shu dam bilan qoʻraning haligi nayi orqali pufflanib, uning ichidagi olov bilan tutashtiriladi".

Keyingi sahifalarda bugun uylarimizga ham issiqlik, ham muzdek harorat baxsh etib turuvchi konditsioner (1915-yilda fransuz olimi Jann Shabannes birinchi konditsionerga patent olgan) haqida gap ketadi:

Ki har sori lavhe erur taʼbiya,
Birida yelu birda oʻt taʼmiya.

Maʼnosi shunday: "Chohning ikki yoniga yaxshilab qaras, biriga oʻt, ikkinchisiga havo deb yozib qoʻyilgan. "Farhod va Shirin"dan olingan mana bu bayt ham unga hamohang jaranglaydi:

Keturdilar hakimi nuktdoni,
Bilik birla jahon ichra jahone!..

Qilib tunni — yorugʻ, kunni qorongʻu,
Suvdin — oʻt yondurub, oʻtdin — sepib suv.

HAZRAT NAVOIY TASVIRLAGAN KIMYOVIY QUROL

Maʼlumotlarga koʻra, 1763-yilda ilk bor urushda kimyoviy-bakterialogik qurolidan foydalanilgan. Oʻshanda ham yevropalik istilochilar Amerika qitʼasida hindu qabilalarini boʻysundirish uchun epidemiya tarqatuvchi kasallikdan foydalanishadi. Navoiy esa XV asrdayoq xotirani yoʻqotuvchi, kishini manqurtga aylantiruvchi kimyoviy vosita haqida maʼlumot bergan:

Borib tushti aʼdo arosigʻa chust,
Azim un chiqordi tegib yerga rust.

Degan toʻrt ish tutti andin vujud:
Sadou afan, is bila oʻtu dud.

Sado botil etti fusunlarni pok.
Oʻti kuydurub qalʼani qildi xok.

Fusungar yuzin dudi etti qaro,
Isi qoʻymadi nukta xotir aro.

Maʼnosi shunday: "Koptoksimon qurol osmonga uchib, dushmanning boshiga yetdi va yerga qattiq tegib, portladi. Undan dahshatli sado chiqdi. Yana sarkash oʻt, qop-qora tutun va badboʻy hid chiqardi. Sado sehlarni tamoman botil qildi, yemirdi. Oʻt hammayoqni kuydirib, qalʼani xarob ayladi. Tutun sehrgarining yuzini qoraytirdi. Hid ularning miyasidagi xotirani yoʻqotdi".

Odatda daholar oʻz oʻlimini oldindan biladi, deyishadi. Rus shoiri Aleksandr Pushkin (duelda vafot etgan) "Evgeniy Onegin" asarida Lenskiy obrazida oʻz oʻlimi manzarasini tasvirlagan, Shoh Mashrab (Balx hokimi Mahmud Qatagʻon tomonidan 1711-yil dorga osiladi) ning "Mansuri Xalloydek ichir sharobi antaxur, Charx urib yigʻlab tururman ushbu dam dor ostida" deb nola qilishi ham soʻzimiz isboti. Navoiy ham bundan mustasno emas, albatta. U oʻzining "Favoyid ul-kibar" — "Keksalik foydalari" devonida 45-60 yoshni umrning qishi hisoblaydi. Oltmish yosh haqida gapirganda "jon bermoaq" istilohini istifoda etadi. Xoʻsh, oʻylab koʻringchi, Navoiyning ustoz Lutfiy 99 yil umr koʻrganida, Navoiyga bu yoshda oʻlim haqida gapirish nega kerak boʻldi ekan?..

Taqdirning ajabligini qarangki, u ham roppa-rosa oltmish yil umr koʻrdi. Manbalarda yozilishicha, Navoiy boshqa mulozimlar bilan 1500-yil 29-dekabr kuni Astrabod yurishidan qaytayotgan Husayn Boyqaroni kutib olgani chiqadi. Shoh bilan koʻrishayotganda, Boyqaroning qoʻliga yiqiladi. Navoiyni tezda Hirotga olib kelishadi. Shoirda sakta (insult) kasali alomatini payqagan tarixchi Xondamir oʻsha zahotiyoyoq qon olishni tavsiya qiladi. Ammo tabib Abdulhay Tuniy bunga qarshi chiqadi. "Hirotdami tabiblar qilgʻilishida hal qilamiz", deydi u. Boyqaro ham qon olinglar, deb buyurganida vaqt qoʻldan berilgan edi. Shoirning tomiridan qon chiqmaydi. Shu tariqa, 1501-yilning 3-yanvar kuni bu yorugʻ olam oʻzining yana bir naziri yoʻq dahosi bilan vidolashdi.

Taajjublanarlisi, shoir ancha yillar avval yozgan sheʼrlaridan birida oʻzining oʻlimi manzarasini ham chizgandi. "Badoyeʼ ul-vasat" — "Oʻrta yosh badealari" asarida "Yoʻlida kosh meni pora-pora qilgʻaylar, Ki xalq holima bir-bir nazzora qilgʻaylar" matlasi bilan boshlanuvchi gʻazalda ulkan qalb sohibi shunday nola qilgandi:

Bu dard ilaki oʻlarmen, maraz chu zohir emas,
Tabiblar bu balogʻa ne chora qilgʻaylar.

Darhaqiqat, Navoiy haq boʻlib chiqdi, tabiblar kasalga chora topa olmadilar. Oradan yillar, asrlar oʻtdi. Hamma davrlarda ham xalq bu buyuk zot dahosi oldida bosh egdi, sheʼrlarini yodlab, uzun tunlarda farzandlariga maʼno-mahzanini tushuntirib berishdan charchamadi. Qabrini ziyorat qilib, obod etib turdi. Darvoqe, jafokash afgʻon yurti XX asrda urush oʻchogʻiga doʻnishini, oʻz qabrining xarobaga aylanishini ham Navoiy besh asr naridan koʻrib, bilib turgandek:

Chun kular yoni soʻkilgan jismu zorimni koʻrib,
Yigʻlaymu yoni yemirilgan mozorimni koʻrib.

Albatta, yuqorida sanab oʻtilgan timsollar, ramzlar, oʻz davri uchun gʻayrioddiy boʻlgan qurilmalar, bashoratlari Navoiy ijodida behisob. Baland minoralar ustiga oʻrnatilgan bugungi parabolek va sputnik antennalariga oʻxshash qurilmalar, dunyoning narigi chekkasidagi inson bilan toʻgʻridan-toʻgʻri bir-birini koʻrib turgan holda (vebkamera orqali) muloqotda boʻlish, kompyuter, internet, kishining may ichgan-ichmagani aniqlab beradigan vosita, kibernetika hamda yana boshqa turli gʻayrioddiyliklar xususidagi farazlar shular jumlasidan. Yana hatto XXI asr odamlari tasavvur doirasidan ham tashqarida boʻlgan antiqa timsollar, farazlar uchraydiki, hayratlanmay iloj yoʻq. Agar ularning muqobilini bugun ham uchratmasak, buni zamonaviy fan va texnikaning noqisligidan deb bilish lozim.

Darhaqiqat, olimlar taʼkidlaganidek, Navoiy ijodi muhtasham bir qasr, barcha uning yonida aylanib yuribdi, xolos. Modomiki, bepoyon tafakkur sarhadlarini fath eta olgan sheʼriyat sohibqironining oltin merosi millat ruhini tarbiyalar ekan, uning ijodini ijodi kabi qomusiy ravishda tadqiq va tahlil etish, bu jarayonda, ayniqsa, yoshlarda ragʻbat uygʻota olish bugungi kunning eng asosiy vazifalaridan biri boʻlib qolaveradi.

Inomjon ABDIYEV,
Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi aʼzosi.

■ 1483-yil 14-fevral – shoh va shoir Bobur tavallud topgan kun

Bobur — fazilatli shaxs

Zahiriddin Muhammad Bobur oʻz adabiy merosida tarbiya masalasiga alohida urgʻu bergan. Inson kamoloti, uning tarbiyasi, xususan, farzand tarbiyasi har doim shoh va shoirning diqqat markazida boʻlgan.

Bobur farzandlarini, ayniqsa, oʻgʻil-larini davlat boshqaruvi, harb va zakot sohasidagi ishlarga tayyorlash maqsadida ularga ogʻzaki nasihatlar berib, “Mubayyin” nomli risola yozgan. Jumladan, “Boburnoma”da farzandlariga maktublar yoʻllab, nasihatlar qilgan. Ana shu maktublardan ikkitasi 1992-yil Bobur mero-sini oʻrganish, ragʻbatlantirish va muvo-fiqlashtirish maqsadida Andijon shahrida tuzilgan Bobur nomidagi xalqaro jamgʻar-ma faoliyati natijasida aniqlangan. Mak-tublar Boburning katta oʻgʻli Nasiriddin Muhammad Humoyunga va ikkinchi oʻgʻ-li Komron Mirzolarga yoʻllangan. Ammo mazkur maktublar “Boburnoma”ga kir-magan.

Boburning Humoyunga yozgan mux-tasar maktubi “maxfiy vasiyatnoma” xa-rakterida boʻlib, tarbiyaviy-didaktik maz-munga ega. U 1529-yil 11-yanvarda (hij-riy 935-yil jumodilavval oyining birinchi kuni) Agra shahri yonidagi “Nilufar” bo-gʻida dam olayotgan paytida yozilib, Hu-moyunga yuborilgan. Bobur oʻgʻliga va-siyatida oʻz hayot tajribasidan kelib chi-qib, har bir masalada ulugʻ bobosi Amir Temurning hukmdorlik uslubidan, harb sohasidagi iqtidoridan andaza olishni, adolati boʻlishni taʼkidlab, “Hazrat Sohib-qiron Amir Temurning ish yuritishlari do-i-mo yodingda boʻlsin. Shunda davlatning maʼmur va puxta boʻladi”, deydi.

Muallif har bir maktubida uning yozil-gan vaqti va qaysi joy bilan bogʻliqligiga eʼtibor qaratadi. Masalan, Humoyunning Hindiston bilan bogʻliq faoliyatini nazarda tutib, oʻgʻliga nasihat qilar ekan, ijtimoi-y-siyosiy qarashlar, davlat boshqaruvi usullari, diniy mazhab va eʼtiqodlarga, urf-odatlarga boʻlgan munosabatlarda odillik bilan hukm chiqarish haqida quyil-dagilarni bayon etadi: “...Har bir mazhab-ga pok qalb bilan qaragin, har bir maz-hab va tariqatga adolati boʻl. Xususan, sigirni qurbon qilishdan saqlanginki, bu Hindistonning qalb ardogʻi va bu viloyat ahli podshoga yaxshi nazar bilan bogʻ-lanadi. Podshoh farmoniga boʻysungan xalqni xarob qilmagin. Adolatni ixtiyor

qilgin. Shunda shoh raiyatdin, raiyat shohdin xotirjam boʻladi. Turli eʼtiqoddagi xalqlarni teng tutginki, shunda saltanat turli tashvishlardan xoli boʻladi”.

Bobur podshoh va raiyat oʻrtasidagi nozik jihat – ularning eʼtiqodi bilan bogʻliq masalaga ham alohida urgʻu beradi. Bun-ga sabab, Bobur turli din va eʼtiqoddagi xalqni adolati va xalqparvar boshqaru-v orqali birlashtirish, ularning inoqligini taʼ-minlash mumkinligini chuqur anglaydi. U inson hayotiga tajovuz qiluvchi turli xuro-fotlarga (masalan, xotin kishini marhum turmush oʻrtogʻi jasadiga qoʻshib yoqish) tish-tirmogʻi bilan qarshi boʻlsa-da, lekin diniy eʼtiqod nuqtayi-nazaridan qadrla-nadigan tushunchalar (masalan, hind-larning sigirni muqaddas deb bilishlari) ni inkor etmaydi. Bu bilan millatlارarо to-tuvlikni taʼminlaydi, adolatni “podshoh va raiyat” oʻrtasida koʻprik, deb biladi.

Bobur maktublarida farzandlariga mehr-muhabbatli otaning siymosi gavda-lanadi. Buni ayniqsa, ikkinchi oʻgʻli Kom-ron Mirzoga yoʻllagan “Nasihatnomayi Bobur ba farzandi xud” (“Boburning oʻz farzandiga nasihatnomasi”) deb nomla-nuvchi maktubidagi “Dono, qadrlr va sao-datli farzand Muhammad Komron baho-dirga” kabi eʼtiroflardan sezish mumkin. Maktubda jimjimador, maqtoʻv mazmuni-dagi lutfilar yoʻq emas. Ular balandpar-voz ruhiyatni emas, balki Boburning far-zandlariga muhabbatini namoyon etadi. Bunday lutf va jumlarlar orqali ogohlikka daʼvat, tahsil, pand-nasihat, ota-onaga hurmat, haqiqatga tik boʻqa bilish, doʻst tanlashda adashmaslik, elga dilxohlik, amir-beklarni toʻgʻri tanlay bilish, xalqqa ishonch, ulamo va fuzalolarning hurmati-ni joyiga qoʻyish kabilar xususida nasihat qilinadi: “Turk ulusidin ota-onasi qoʻl och-gan, onasi toʻy boshlagan tartib-intizomli kishilar borkim, ularning otalari ota-ona-mizga xizmat qilib, jon nisor aylab, issiq-sovuq, safar va oʻtroqda birga boʻlib, bir lahza ham bizni tashlab ketishmagan. Ularning xizmati shoyista, pand-nasihat-lari joʻyalik. Ular orasidan soʻrab-surush-tirib, dargohingga yoʻl berib, oʻzingga ya-



qin olib yur, gʻofil boʻlmagʻaysen”.

Munosib farzand ota-onasi olamdan oʻtgach, ularga doʻst va qadrdon boʻlgan, yordam bergan kishilar bilan yaqin boʻli-shi, ulardan xabar olishi, ularga yordam qoʻlini choʻzishi, ular holidan xabardor boʻlishi lozim. Bu haqda hadislar ham mavjud. Boburning yuqoridagi eʼtirofida ham ana shu mazmuni anglash mum-kin.

Darhaqiqat, Bobur taʼkidlaganidek, bunday insonlarni oʻziga yaqin tutgan kishi toʻgʻri doʻst tanlay biladi. Chunki uning yonida “ota-onamizga xizmat qilib, jon nisor aylagan” kimsalar borki, doimo toʻgʻri yoʻlga boshlaydilar.

Bobur Komron Mirzoga yoʻllagan mak-tubida Xoja Hofiz, Shayx Saʼdiy, Mavlono Jomiyning forsiy baytlaridan, xalq maqol-laridan unumli foydalangan.

Masalan, Bobur Komron Mirzo atrofi-da munosib insonlar joy olmogʻi kerakli-gini nazarda tutib, shunday yozadi: “Elga yaxshi soʻz aytib, dilxoh boʻlib, isteʼdodi mukammal insonlar bilan hamdam boʻl-gaysen. Tagʻin: nojins, zoti past kimsa-larga har qancha yoqimtoy va qobiliyatli boʻlsalar ham tarbiyat qilib, mamlakatni idora qilishga imdod bermagaysenkim... Hazrati Mavlono Jomiydin bu qitʼa shoy-on boʻlubtur.

Harki nokas buvad dar aslu sirisht, Munqalib natavon kardan, ey jigar. Sagmagasro agar kuni maqlub, Qalbe u gʻayre sagmagas nashavad.

Mazmuni: har kim asli nokas boʻlib ya-ralsa, jigarim, uni tuzatib boʻlmaydi. Itchi-vin (sagmagas)ni harchand oʻzgartirgan-da ham, uning qalbi itchivin (sagmagas) boʻlib qolaveradi”.

Fikrimizcha, Bobur Komron Mirzoga xat yozar ekan, uning adabiyotga qizi-qishi va nodir qobiliyatini nazarda tu-tib, ulugʻ ijodkorlarga murojaat qiladi va nasihatlarining taʼsir kuchini oshiradi. Boburning boshqa asarlaridagi kabi oʻz farzandlariga yoʻllagan muxtasar mak-tublarida ham muallif maʼnaviy dunyosi-ning teranligi, shuningdek, mehribon va gʻamxoʻr ota qalbi, kuchli davlat arbobi, bobosi Temurga munosib avlod qiyofasi namoyon boʻlgan. Bir soʻz bilan aytgan-da, ingliz tarixchisi Eduard Xolden eʼtirof etganidek, “U (Bobur)ning manglayiga yuksak fazilatli inson deb bitib qoʻyilgan” va bu uning adabiy-ilmiiy merosida, mak-tublarida ham oʻz tasdiqʻini topgan.

Gulsanam XOLIQULOVA,
filologiya fanlari nomzodi.

■ Yangiliklar, xabarlar

ZAMON TALABI ASOSIDA

Oʻzbekiston Respublikasida iqtisodiyotning tayanch tarmoqlarini texnologik modernizatsiya qilish va raqamli transformatsiyani jadallashtirish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biridir. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va xalqimizga yoʻllangan Murojaatnomada sanoat tarmoqlarining texnologik oʻsish modeliga oʻtishi, ishlab chiqarishda samaradorlikni oshirish va yuqori qoʻshilgan qiymat yaratish muhim vazifa sifatida belgilandi.

Bugungi kunda jahon togʻ-kon sanoati murakkab tarkibiy oʻzgarishlar sharoitida faoliyat yuritmoqda. Foydali qazilmalar sifat koʻrsatkichlari pasayishi, ochiq usulda qazib olish konlarining chuqurliklarining ortishi, togʻ jinslarini tashish masofalarining uzayishi, shuningdek, sanoat xavfsizligi va ekologik talablarning kuchayishi boshqaruvning anʼanaviy usullarida tobora samaradorlikni talab qilmoqda.

Mazkur yoʻnalishlar doirasida Shimoliy kon boshqarmasida kon-geologik axborot tizimini joriy etish boʻyicha amaliy ishlar olib borilmoqda. Loyiha togʻ-kon ishlab chiqarishini boshqarishda zamonaviy raqamli yondashuvlarni joriy etishga qaratilgan boʻlib, “NKMK” AJning 2030-yilgacha moʻljallangan raqamli transformatsiya strategiyasi doirasida amalga oshirilmoqda.

2025-yil davomida loyihaning asoslari ishlab chiqildi, ishlab chiqarish jarayonlari raqamli konturga keltirildi, mavjud maʼlumotlar tizimlashtirildi hamda mutaxassislar maxsus tayyorgarlikdan oʻtkazildi.

Kon-geologik axborot tizimi doirasida geologiya, marksheyderlik va kon ishlarini rejalashtirish jarayonlari yaqin axborot makoniga birlashtirildi. Ushbu jarayonda Fransiyaning Dassault Systems kompaniyasiga mansub GEOVIA Surpac va MineSched dasturiy mahsulotlaridan foydalanilmoqda. Bu esa muhandislik cheklovlari, uskunalar parametrlari va sifat koʻrsatkichlarini hi-

sobga olgan holda kon ishlarini aniq va asoslangan tarzda rejalashtirish imkonini beradi.

Geologiya-qidiruv va marksheyderlik ishlarining dolzarb maʼlumotlari asosida burgʻilash-portlatish bloklarining raqamli modeli shakllantirilib, u ishlab chiqarish rejalari bilan uzviy bogʻlanadi. Natijada qazib olish ketma-ketligi, texnika yuklamasi hamda hajm va sifat koʻrsatkichlari oldindan baholalanib, ishlab chiqarishdagi xatarlar kamaytiriladi.

Kon-geologik axborot tizimini joriy etishdan kutilayotgan asosiy natijalar ishlab chiqarish yoʻqotishlarini qisqartirish, boshqaruvdagi noaniqlikni kamaytirish va rejalashtirish aniqligini oshirishdan iborat. Shu bilan birga, loyiha doirasida rahbariyat tarkibidagi malakali muhandis-texnik xodimlarni zamonaviy axborot dasturini oʻzlashtirishiga va ushbu dasturda ham oʻz bilim va malakalaridan foydalangan holda ish yuritishlariga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Shimoliy kon boshqarmasida kon-geologik axborot tizimini joriy etish bugungi davr talabiga hamohang boʻlib, togʻ-kon sanoatida raqamli boshqaruvni rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va barqaror iqtisodiy oʻsishga erishish yoʻlida muhim amaliy qadam boʻlib xizmat qilmoqda.

Sherzod URALOV,
SHKB operatsion samaradorlikni oshirish boʻlimi boshligʻi.

SAMARALI MEHNAT NATIJASI

Markaziy kon boshqarmasi Zarafshon taʼmirlash-mexanika zavodi mehnat jamoasining samarali mehnati natijasida 2025-yildan boshlab 9 ming turdagi mahalliyashtirilgan, import oʻrnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarila boshlandi.

Investitsiya dasturi doirasida loyihalarining amalga oshirilishi, yangi korxonalar barpo etilishi hamda qoʻshimcha quvvatlar ishga tushirilishi natijasida zavod mahsulotlariga boʻlgan talab yildan yilga ortib bormoqda. – Korxonada mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2024-yilda 200 milliard soʻmlik boʻlgan boʻlsa, oʻtgan yilning oʻzida 70 milliard soʻmga koʻpaydi – deydi zavod bosh muhandisi Jamoliddin Salimov. – Soʻnggi yillarda zavodda gidravlik ekskavatorlar, burgʻilash uskunalar, texnologik uskunalar ehtiyot qismlari hamda konveyerlar

uchun rolklar ishlab chiqarilib, gidrometallurgiya zavodlarida foydalanilayotgan koʻplab nasoslar, texnologik uskunalar, ekskavatorlarning kovshlari va elektr dvigatellari taʼmirlanmoqda. Zavodning Xorazm viloyati Tuproqqalʼa tumanidagi “Sarimoy” payvandlash-mexanika uchastkasida ham 400 ga yaqin turdagi mahsulot ishlab chiqarilmoqda. Bu yerda nasoslar uchun ehtiyot qismlar va uzellar, vallar, yarimmuftalar, bolt-gayka va boshqa mahsulotlarni yasash va payvandlash usuli bilan detallarni taʼmirlash samarali yoʻlga qoʻyilgan.

Nafosat ZIYOYEVA.

MAHALLIYLASHTIRISH HAJMI KENGAYMOQDA

Navoiy mashinasozlik zavodi – Navoiy kon-metallurgiya kombinatining mahalliyashtirilgan va import oʻrnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqaradigan yirik boʻlinmasidir.

Bugungi kunda zavod tarkibiga 11 ta sex, 5 ta uchastka, 3 ta laboratoriya hamda Taxiotosh metallkonstruksiyalar va nstandart jihozlar ishlab chiqarish zavodi, Termiz va Nurobod mexanika zavodlari kabi boʻlinmalar kiradi. 3,4 ming nafar ishchi-xodim ishlab kelayotgan korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar nomenklaturasi 15 ming turdan ortiqni tashkil etadi.

Hozirda zavodda tayyorlanayotgan mahsulotlarning 98 foizi kombinat ehtiyojiga yoʻnaltirilmoqda. Navoiy mashinasozlik zavodi faoliyatida eʼtirofga molik yutuqlardan biri bu korxonada kombinat gidrometallurgiya zavodlarida ishlatiladigan yirik hajmdagi tegirmonlar ishlab chiqarilishi yoʻlga qoʻyilganligidir. Xususan, Mahalliyashtirish dasturi doirasida oʻtgan yilda zavodda 11 ta turli oʻlchamdagi maydalash tegirmoni tayyorlanib, kombinat boʻlinmalariga yetkazib berildi.

Soʻnggi yillarda zavodning mexanika-yigʻuv sexini texnik va texnologik qayta jihozlash hamda qoʻymachilik sexi quvvatini oshirish boʻyicha investitsiya loyihalari amalga oshirildi. Nati-

jada, mexanika-yigʻuv sexida ogʻirligi 980 tonnagacha boʻlgan tegirmonlar, ogʻirligi 400 tonnagacha boʻlgan yirik oʻlchamdagi jihozlarga ishlov berish imkonini mavjud boʻlib, qoʻymachilik sexida oʻrnatilgan yangi pech metal eritish quvvatini 10 ming tonnaga oshirdi.

2025-yilda zavodda 103 loyiha boʻyicha umumiy qiymati 1 trillion soʻmdan ortiq boʻlgan mahalliyashtirilgan va import oʻrnini bosuvchi mahsulotlar, shu jumladan, yangi turdagi metal kesish dastgohlari, turli oʻlchamdagi maydalash tegirmonlari, ekskavatorlar uchun reduktor va kovshlar, gidrometallurgiya zavodlari uchun nostrandart uskunalar va ehtiyot qismlar ishlab chiqarildi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari hisobiga kombinat boʻlinmalarining texnologik va kon uskunalar uchun ehtiyot qismlarga boʻlgan talabning ortishi tufayli mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi yanada ortmoqda. Bu, kelusida nafaqat ish koʻlamini oshirish, balki yangi ish oʻrinlarini yaratishga xizmat qiladi.

“NKMK” AJ Matbuot xizmati.

■ Dolzarb mavzu

KOMBINATDA ENERGIYA SAMARADORLIGI OSHIRILMOQDA

Bugungi kunda Navoiy kon-metallurgiya kombinatida energiya samaradorligini oshirish uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish boʻyicha keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa, oʻz navbatida, kombinat faoliyatining ekologik va iqtisodiy barqarorligini taʼminlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Soʻnggi yillarda kombinat korxonalarida quyosh energiyasidan foydalanishni kengaytirish maqsadida, ishlab chiqarish maydonlarida quyosh fotoelektr stansiyalarini qurish boʻyicha qator loyihalar amalga oshirildi. Misol uchun, 2024-yilda kombinatda ishga tushirilgan quyosh fotoelektr stansiyalarining umumiy quvvati 1 450 kVt ni tashkil etgan boʻlsa, 2026-yil yanvar holatiga koʻra amaldagi quyosh fotoelektr stansiyalarning umumiy quvvati qariyb 6 barobar oshirilib, 10 050 kVt ga yetkazildi. Natijada, oʻtgan yilda ushbu fotoelektr stansiyalar yordamida 11,5 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarildi.

– Bugungi kunda kombinatning barcha maʼmuriy binolari fotoelektr stansiyalardan olinadigan elektr energiya bilan toʻliq taʼminlangan. 2025-yilda Nurota tumanidagi “Pistal” koni maydonida 2 300 kVt quvvatli, 4-gidrometallurgiya zavodi hududida 900 kVt quvvatli, Zarafshon qurilish boshqarmasida 500 kVt quvvatli quyosh fotoelektr stansiyalari ishga tushirildi. Hozirgi vaqtda kombinat elektr energiyasi isteʼmolining 20 foizdan ortigʻi “yashil energiya”, yaʼni, bilvosita Tomdi tumanida joylashgan 500 MVt quvvatga ega shamol elektr stansiyasida ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi hisobidan qoplanmoqda, – deydi “NKMK” AJ bosh energetigi oʻrinbosari Ikromjon Shukurlayev.

Shuningdek, kombinat korxonalarida jami 5 ming donadan ziyod quyosh suv isitish qurilmalari – geolekollaktorlar oʻrnatilgan boʻlib, yoz mavsumida ular yordamida sutkasiga qariyb 724 ming litr hajmda issiq suv ishlab chiqarilmoqda. Natijada, issiq kunlarda kombinatning issiq suvga boʻlgan ehtiyoji toʻliq quyosh energiyasi hisobidan taʼminlanmoqda. Bu esa yiliga 1,7 million kubometr tabiiy gazni tejash, 12,3 million kilovatt-soat elektr energiyasini iqtisod qilishga xizmat qilmoqda.



“Yashil energetika” yoʻnalishida Navoiy kon-metallurgiya kombinatida tasdiqlangan “Yoʻl xaritasi”ga asosan 2026-2030-yillar davomida umumiy quvvati 26,1 MVt boʻlgan fotoelektr stansiyalari foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan.

Kombinatda ishlab chiqarish obyektlarini kafolatlangan va uzluksiz elektr energiyasi bilan taʼminlash maqsadida yangi podstansiyalar qurish hamda mavjud elektr inshootlarini rekonstruksiya qilish ishlari ham amalga oshirilmoqda. Bosh energetik boʻlimi muhandisi Rustam Ildiyevning taʼkidlashicha, “7-GMZ qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish” investitsiya loyihasi doirasida quvvati 2x25 MVA boʻlgan 35/6 kV kuchlanishli podstansiya hamda uzunligi 13 km boʻlgan 35 kV kuchlanishli havo elektr uzatish tarmoqlari barpo etilmoqda. Ayni paytda loyiha ishlari boshlangan boʻlib, elektr uskunalar va materiallar tayyorlanmoqda.

Shuningdek, “Qoqpatas va Dovgʻiztov oltin konlarida maʼdan qazib olish. III navbat” investitsiya loyihasi doirasida quvvati 2x25 MVA boʻlgan 220/10/10 kV kuch-

lanishli podstansiya hamda uzunligi 6 km boʻlgan 220 kV kuchlanishli havo elektr uzatish tarmoqlari qurilishi davom etmoqda. Ushbu loyiha boʻyicha qurilish-montaj ishlari jadal surʼatlarda olib borilmoqda.

Bundan tashqari, 3-GMZning yangi ishga tushirilayotgan va amaldagi ishlab chiqarish quvvatlarini ishonchli elektr energiyasi bilan taʼminlash maqsadida, “Feruza” podstansiyasining 220 kV kuchlanishli ochiq taqsimlash qurilmalarini kengaytirish va rekonstruksiya qilish” loyihasi reja muvofiq tayyorlandi. Mazkur loyiha boʻyicha loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilib, Davlat shaharsozlik ekspertizasiga taqdim etildi. Ekspertiza xulosasi olingandan soʻng, belgilangan tartibda tenderlar oʻtkaziladi va quuruvi tashkilot aniqlanadi.

Qayd etilishicha, ushbu loyihalar kombinatning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, qimmatbaho metallar ishlab chiqarish barqarorligini taʼminlash hamda davlat rejsi koʻrsatkichlarini toʻliq bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dildora KARIMOVA.

■ Toʻyxat oʻrnida

Inson umrining qiymati uning qancha yil yashagani bilan emas, balki jamiyat va Vatan ravnaqi yoʻlida qanday iz qoldirgani bilan oʻlchanadi. Ayniqsa, butun umrini bir sohaga, bir kasbga, bir maqsadga bagʻishlagan insonlar hayot yoʻli yosh avlod uchun ibrat maktabi hisoblanadi. Ana shunday fidoyi, mehnatsevar va sadoqatli insonlardan biri – geologiya sohasining yetuk mutaxassisi Hamid Sharipovdir.

MEHNAT VA SADOQAT BILAN YOZILGAN UMR YOʻLI

Hamid Sharipov 1946-yil 1-yanvar kuni Konimex tumani Shodibek qishlogʻida tavallud topgan. U 1962-yil oʻrta maktabni tugatib, 1963–1969-yillarda Toshkent davlat universiteti (hozirgi Milliy universitet)ning Geologiya fakultetida tahsil olgan. Talabalik yillaridanoq mehnat faoliyatini boshlab, 1964–1969-yillarda Oʻzbekiston Fanlar akademiyasining Geologiya va geofizika-gidrogeologiya institutida laborant sifatida ish yuritgan.

1969-yildan boshlab uning mehnat yoʻli Navoiy kon-metallurgiya kombinati bilan uzviy bogʻlandi. “Muruntov” karerida oddiy ishchi vazifasida faoliyat boshlab, keyinchalik tajribali geolog sifatida katta natijalarga erishdi. Elik besh yillik mehnat faoliyati davomida taniqli olimlar bilan hamkorlikda Qizilqum sahrosi hamda mamlakatimiz boʻylab geologik-qidiruv ishlarini olib borishda samarali mehnat qildi. Hisor, Surxon, Boysun, Yakkabogʻ togʻlari va Markaziy Qizilqum hududlarida maʼdan zaxiralariining aniqlanishi ana shu fidokorona mehnatning amaliy natijasidir.

Hamid Sharipov ishlab chiqarish bilan bir qatorda, 1970-yildan 2021-yilga qadar Navoiy davlat konchilik instituti (bugungi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti)da oʻrindoshlik asosida talabalarga dars berib, koʻplab yosh mutaxassislarni tarbiyaladi. Uning ustozlik faoliyati shogirdlar xotirasida bilim va hayotiy tajriba uygʻunligi sifatida muhrlanib qolgan.

Shaxsiy hayotida ham H.Sharipov ibratli inson sifatida tanilgan. U turmush oʻrtogʻi – kombinatda 40-yildan ortiq faoliyat yuritgan Norxol Togʻayeva bilan 60-yildan buyon totuvlikda umr kechirib, 4 nafar farzandni voyaga yetkazishdi. Bugungi kunda ular 16 nafar nevra



va 9 nafar chevaraning mehribon bo-bo-buvisi sifatida saodatli hayot kechirishmoqda. 2025-yilda mazkur oilaning “Ibratli oila” koʻkrak nishoni bilan taqdirlanishi ham bejiz emas.

Hamid Sharipovning hayot va mehnat yoʻli – kasbga sadoqat, mehnatga muhabbat va insoniy fazilatlarining yorqin namunasidir. Uning faoliyati orqali konchilik va geologiya sohasida amaliy tajriba, taʼlimda esa ustozlik anʼanalari muvaffaqiyatli uygʻunlashganini koʻrish mumkin. Il darajali “Konchilik shuhrati” koʻkrak nishoni sohibi boʻlgan ushbu fidoyi inson qutlugʻ 80 yoshi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasi konchilik va metallurgiya sanoati faxriylar Kengashi tomonidan ham munosib taqdirlandi. Faxriy ustozga hamisha mustahkam sogʻlik, barcha yaqinlari boshida hamisha eson-omon boʻlishini tilaymiz!

Ozod MUSTAFOYEV,
jurnalist.

■ 2026-yil - kiberjinoyatlarga qarshi kurashish yili!

Soʻnggi vaqtlarda Navoiy viloyati hududida bank plastik kartalaridagi pullarni talon-toraj qilish bilan bogʻliq sodir etilayotgan jinoyatlar salmogʻi kun sayin oshib borayotganligi hech kimga sir emas.

BARCHAMIZ HUSHYOR BOʻLAYLIK!

Sodir etilayotgan kiberjinoyatlar miqyosi va dolzarbligidan kelib chiqqan holda Ichki ishlar vazirligi tizimida 2026-yil – kiberjinoyatlarga qarshi kurashish yili, deb eʼlon qilindi. Shunga muvofiq, Oʻzbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, banklar, toʻlov tizimi operatorlari va toʻlov tashkilotlarining har biriga kiberjinoyatlarning oldini olish hamda aholining kibermadaniyatini yuksaltirishga qaratilgan barcha zarur choralarini koʻrish boʻyicha qatʼiy topshiriqlar belgilab berildi.

Mazkur qaror talablaridan kelib chiqib, Navoiy viloyati hududida kiberjinoyatlarga qarshi kurashish, uni oldini olish va fosh etish, fuqarolarga kiberfiribgarlar tuzogʻiga tushib qolmasliklari uchun ularning bilimlarini oshirish, aholining ushbu turdagi jinoyatlarga qarshi immunitetini shakllantirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Birinchi navbatda aholini kiberjinoyatlardan xabardor qilish, kelgusida ularning ushbu turdagi jinoyatlardan jabrlanishlarini oldini olish maqsadida, viloyat ichki ishlar boshqarmasi Axborot texnologiyalari sohasida jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi masʼul xodimlari tomonidan har kuni fuqarolar bilan toʻgʻridan toʻgʻri targʻibot uchrashuvlari oʻtkazilib, ijtimoiy tarmoqlar orqali onlayn tarzda targʻibot materiallari keng yoritilib borilmoqda.

Xususan, “NKMK” AJ tizimida xizmat qilayotgan xodimlar tomonidan jinoyatning ushbu turidan jabrlanish holatlarining oldini olishga qara-

tilgan qoʻshma profilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqilib, tasdiqlandi. Profilaktik targʻibot tadbirlari davomida ishchi-xodimlarning pozitsiyasi aniq va tizimli boʻlishi lozimligi, firibgarlar tomonidan hozirgi kunda eng ommalashgan kommunikatsiya tarmoqlaridan biri boʻlgan “telegram” messengeri orqali turli koʻrinishdagi kiberhujumlar sodir etilayotganligi tushuntirib borilmoqda.

Ulardan fayl koʻrinishi “apk” kengaytmali zararli dasturlarni misol qilish mumkin. Birgina, “Toʻyga taklifnoma”, “Rasmdagi sizmi”, “Sud qarori” va shu kabi fuqarolarni qiziqtiruvchi turli xil sarlavhalar bilan nomlangan virusli dasturlar orqali aholining aksariyat qismini aldab, shaxsiy maʼlumotlarini egallagan holda bank plastik kartalarida mavjud boʻlgan mablagʻlarni yashirin ravishda talon-taroj qilish holatlari tez-tez sodir boʻlmoqda. Afsuski, fuqarolarning bu sohadagi huquqiy savodxonligi yetishmasligi oqibatida, messengerlardagi yolgʻon “havola” va “soxta reklama”larga aldanib, shaxsiy pul mablagʻlarini oʻz ixtiyorlari bilan firibgarlarning qoʻliga tutqazish holatlari ham uchramoqda.

Fuqarolarimiz firibgarlar tomonidan ularning turli koʻrinishdagi aldov yoʻlidagi oson pul topish va shohona hayot kechirishdagi vaʼdalariga ishonib, pullarini oʻzlari tanimagan shaxslar ixtiyoriga topshirishmoqda. Hozirgi kunda ommalashayotgan kiberjinoyat usullaridan biri telegram messengeridan shaxsga doir maʼlumotlarni koʻl-

ga kiritish orqali, bank kartalardan fuqarolarning pullarini echib olish, profilarni klonlashtirish va eng achinarlisi profilidagi tanishlardan qarz soʻrash holatlari uchramoqda. Bunday holatlarga tushib qolmaslik uchun barcha ijtimoiy tarmoq va

messengerlardagi profil (akkaunt)larga ikki bosqichli “2FA” parollarni yoqish lozim boʻladi.

Endilikda shu kabi holatlarning oldini olish maqsadida viloyat ichki ishlar boshqarmasi Axborot texnologiyalari sohasida jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi tomonidan maxsus @ANTIXACKBOT telegram boti yaratildi. Mazkur bot, telegram guruhlariga turli profil egalaridan kelayotgan “apk” formatidagi virusli fayllarni aniqlab, oʻz vaqtida zararsizlantirish choralarini koʻrish bilan bir qatorda, ushbu guruhlariga kibermakondagi tahdidlardan himoya qilish va fuqarolarni kiberjinoyatlarning oqibatlaridan ogohlantirishga qaratilgan targʻibot materiallari bilan tanishtirib boradi. Bir soʻz bilan aytganda, hozirgi kunda eng dolzarb masalalardan biriga aylanib borayotgan kiberjinoyatlardan fuqarolarni onlayn tarzda ogohlantirib turadi.

Bugungi axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda, har bir inson axborot xavfsizligiga qatʼiy rioya qilgan holda shaxsiy va bank kartalaridagi maʼlumotlarni uchinchi shaxslardan sir tutishi lozim. Kibermakonda sodir etilayotgan jinoyatlar ham shuni taqozo etyapti. Barcha fuqarolarimiz kiberhujumlarga ongli ravishda munosabat bildirib, ulardan himoyalalanishlari lozim.

Shokir HAZRATQULOV,
Navoiy viloyati IIB
ATSJQKB masʼul xodimi.

■ Tahlil

SPORT – SOGʻLOM HAYOT GAROVI

Sport, bu – harakat va sogʻlik manbai. U inson hayotida muhim oʻrin tutadi. Nafaqat jismoniy salomatlik, balki maʼnaviy va ijtimoiy jihatdan ham foydali boʻlib, sogʻlom turmush tarzi, yomon odatlardan yiroq boʻlish va jamiyatdagi salbiy illatlarga qarshi kurashishga yordam beradi.

Mamlakatimizda sportni rivojlantirish, yosh avlodni jismonan sogʻlom va maʼnaviy barkamol etib tarbiyalash, xalqaro maydonlarda yurtimiz shaʼnini munosib himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida eʼtirof etiladi.

Sport bilan muntazam shugʻullanib yurgan inson doimo oʻzini tetik va yengil his etadi. Muntazam olib boriladigan sport mashgʻulotlari inson organizmning faol ravishda ishlashini taʼminlaydi. Ana shunday ulkan maqsadlar bilan Navoiy kon-metallurgiya kombinatida ishchi-xodimlar sogʻligʻi va sogʻlom turmush tarziga eʼtibor qaratib kelinmoqda. Bugungi kunda NKMK tizimida 6 ta sport majmuasi faoliyat yuritmoqda. Mazkur sport majmualarida jami 89 nafar murabbiy va yoʻriqchi-uslubchilar ish olib boshladi. Ularning 71 nafari oliy maʼlumotli mutaxassislar boʻlib, 29 nafari ayollardir. Sport majmualaridagi 66 ta sport seksiyasida 3 ming nafarga yaqin bolalar va oʻsmirlar hamda qariyb 2 ming nafar ishchi-xodimlar muntazam ravishda sport bilan shugʻullanmoqda. “NKMK jamgʻarmasi” davlat muassasasi tarkibida barcha sport majmualari va madaniyat saroylari faoliyatini muvofiq-lashtirib turadigan guruh tashkil etilgan boʻlib, sportni rivojlantirish, sogʻlom turmush tarzini targʻib etish hamda jismoniy va maʼnaviy barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan vazifalarni izchil amalga oshirishga xizmat qilmoqda. Guruhning asosiy vazifalari “NKMK” AJ, “Navoiyuran” DK va “NKMK jamgʻarmasi” DM xodimlari, ularning oila aʼzolari hamda keng jamoatchilik oʻrtasida ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etish, bolalar sporti va yuqori natijalar sportini rivojlantirish, faol va sogʻlom turmush tarzini targʻib qilishdan iboratdir. Jismoniy tarbiya va sport orqali yoshlarda Vatanga sadoqat, sportda halol kurash, jamoaviylik va intizom kabi yuksak fazilatlarini shakllantirish

ham muhim vazifalar sirasiga kiradi. Navoiy shahrida faoliyat yuritayotgan “Soʻgʻdiyona” jismoniy tarbiya va sport saroyi yetakchi sport muassasalaridan biri boʻlib, sogʻlomlashtirish, ommaviy sport, bolalar sporti va yuqori natijalar sportini rivojlantirish yoʻnalishlarida keng koʻlamli ishlarni amalga oshirmoqda. Uning tuzilmasida jismoniy sogʻlomlashtirish va ommaviy sport ishlari, yuqori natijalar sportini rivojlantirish boʻlimlari hamda Bolalar va oʻsmirlar sport maktabi faoliyat yuritadi. Murabbiy va yoʻriqchi-uslubchilar tomonidan 9 turdagi sport yoʻnalishlari boʻyicha sogʻlomlashtirish mashgʻulotlari yoʻlga qoʻyilgan boʻlib, spartakiada, turnir va birinchiliklar muntazam tashkil etilyapti. Barcha muhim sanalarga bagʻishlangan sport tadbirlari yuqori saviyada oʻtkaziladi. Bolalar va oʻsmirlar sport maktabida 21 nafar murabbiy 1024 nafar sportchi bilan mashgʻulotlar olib borishadi. Oʻtgan yilda sport maktabi tarbiyalanuvchilari turli musobaqalarda 182 ta oltin, 104 ta kumush va 94 ta bronza medallarini qoʻlga kiritishdi. Bir qancha qobiliyatli sportchilar Oʻzbekiston milliy terma jamoasi tarkibiga qabul qilindi.

“Alpomish”, “Lochin”, “Yoshlik”, “Konchi” va “Marjonbuloq” sport majmualarida ham ommaviy sport va bolalar sportini rivojlantirish borasida samarali ishlar amalga oshirilyapti. Ushbu majmualarda minglab bolalar, oʻsmirlar va ishchi-xodimlar sport bilan muntazam shugʻullanib, respublika va xalqaro musobaqalarda faol ishtirok etmoqdalar.

NKMK sportchilari Oʻzbekiston, Osiyo va jahon chempionatlarida, shuningdek, Kubok musobaqalarida munosib qatnashib, yuqori natijalarga erishgan sportchilar va ularning faxrii oʻrinlarni egallashida oʻz hissasini qoʻshayotgan ustoz-murabbiylar faoliyati alohida oʻrin tutdi.

Jumladan, “Soʻgʻdiyona” JTSKdan B.Abdurasulov (murabbiysi P.Ashurov)



yunon-rum kurashi boʻyicha kattalar oʻrtasida Osiyo chempionatida ikkinchi, S.Kuyanchiyeva (murabbiysi A.Abduraxmanova) qilichbozlik boʻyicha Markaziy Osiyo chempionatida uchinchi, S.Odilova va A.Nutmurodova (murabbiysi T.Musakulov) suzish sport turi boʻyicha 1-Markaziy Osiyo chempionatida birinchi oʻrinni qoʻlga kiritdi. “Lochin” sporti majmuasidan G.Obloqulova (murabbiysi A.Shodmonov) sambo boʻyicha Osiyo-Okeaniya chempionatida birinchi, Jahon kubogida uchinchi oʻrinni egalladi. “Alpomish” sport majmuasidan N.Malyugina va S.Bobomurodovlar pauerlifting boʻyicha Oʻzbekiston va Osiyo chempionatida birinchi oʻringa sazovor boʻldi.

2025 yil yakunlariga koʻra, “NKMK jamgʻarmasi” DM tasarrufidagi sport majmualari sportchilari tomonidan jahon chempionatlarida 4 ta, Osiyo chempionatlarida 30 ta, xalqaro turnirlarda 37 ta, respublika musobaqalarida 333

ta hamda viloyat musobaqalarida 615 ta – jami 1019 marotaba sovrinli oʻrinlar qoʻlga kiritildi.

Xulosa qilib aytganda, 2025-yilda NKMK tizimida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, sogʻlom turmush tarzini ommalashtirish hamda yuqori natijalar sportini qoʻllab-quvvatlash borasidagi ishlar tizimli tarzda amalga oshirildi. Yil yakunlari boʻyicha yuqori natija koʻrsatgan sportchi va murabbiylar viloyat hokimligi hamda “NKMK jamgʻarmasi” rahbariyati tomonidan munosib taqdirlanishdi. Erishilgan yutuqlar va rahbariyat tomonidan koʻrsatilgan eʼtibor va gʻamxoʻrlik sportchi va murabbiylarga kelgusida ham sportni yanada rivojlantirish, yurtimiz va kombinatimiz sport nufuzini oshirish uchun mustahkam asos boʻlib xizmat qiladi.

Nargiza XAMIDOVA,
“NKMK jamgʻarmasi” DM
Madaniyat va sport faoliyatini
tashkillashtirish guruhi rahbari.

■ Hayot chorahalarida

OTILGAN TOSH

Rus shoirasi Svetlana Kopilovaning shu nomli sheʼrining nasriy bayoni

Bir yosh kishining azaliy ezgu orzusi bor edi. U shu umidiga erishish niyatida juda koʻp ishlashga harakat qilar, muridiga yetishni oʻylab tunda uyquga ketar va shu maqsadi bilan tongda koʻzini ochar edi. Koʻproq pul toʻplab, yangi avtomobil olish ilinjida yurar edi u, shu bois imkon darajasida tezroq kerak boʻlgan mablagʻni yigʻib, mashina kalitini qoʻliga olgisi kelardi. Kunlarning birida azaliy orzusiga erishdi, yetarlicha mablagʻ toʻpladi va yap-yangi, yarqiragan, oʻzi istagan rangdagi avtomashina xarid qildi. Orzusi ushalgan yigit “toychogʻi” rulini boshqarganda rohatlanar edi: yangi mashina-yangida, yurishi ham boshqacha, hatto hidi ham.

Kunlarning birida shahar chetidagi ravon yoʻlda, shovqinsiz harakatlanayotgan ulovini boshqarib, musiqa tinglab ketayotib, bir bolakayni qoʻl siltab, toʻxtash uchun ishora qilayotganini koʻrdi. Yigit avtomobilni toʻxtatmay oʻtgan edi ham-ki, bolakay tomonidan koʻzlab otilgan tosh kelib mashinaga tegdi. Jahli chiqqan haydovchi mashinani orqaga olib, toʻxtatganda, bolaning jarangdor ovqozini eshitdi:

– Amakijon, jon amakijon, iltimos, meni kechiring. Men tosh otganimning sababini aytaman sizga, – deya baqirar edi bolakay. – Mana, yoʻl chetidagi ana shu ariqqa ukam oʻtirgan nogironlar aravachasi qulab tushdi. Ukam ogʻriqqa bardosh berolmay, dodlayapti, yigʻlayapti, ingrayapti. Ariq juda chuqur ekan, chiqarib olishga mening kuchim yetmayapti. Agarda men kapotingizga tosh otmaganimda, siz ham boshqa haydovchilar kabi mashinangizni toʻxtamay, oʻtib ketar edingiz!

Bu gaplarni eshitgan, gʻazablangan yosh

haydovchi sarosimaga tushib qoldi:

– Koʻpdan beri turibsizlarmi?
– Uch soatdan beri chiqarib ololmayapman, ukamning oyogʻi shikastlangan, buning ustiga, qarang, osmonni qop-qora bulut qoplab kelyapti, momaqaldiroq boʻladiganga oʻxshaydi.

Haydovchi yoʻlning chetidagi ariqning yaqiniga borib qaraganida, qiyshayib qolgan nogironlar aravachasida oʻtirgan bolaning kattakatta, chiroyli moviy koʻzlaridagi ogʻriq azobi, oʻtinchni va yuzlarini yuvgan koʻzyoshlarini koʻrib, bagʻri ezildi, yuragi boʻgʻziga tiqilib, urishdan toʻxtab qolganday boʻldi, hatto. Bolani aravachasi bilan birga ariqdan chiqarib olayotganida, miyasidan bir xayol oʻtdi: u koʻpdan beri orzu qilgan avtomobilini xarid qilayotganida ham hozirgidek oʻz ishdan mamnunlik tuygʻusini his qilmaganini angladi.

Xotira uygʻondi: yaqin oʻtmishda azaliy ezgu orzusi bor edi – u shu umidiga yetishish niyati bilan kechasi uyquga ketar va shu orzusi qanotida – zavoddan chiqqan yangi mashinani boshqarayotgan holdagi tasavvur ila uyqudan uygʻonar edi.

U avtomobilini pachoq joyini tuzatishga olib bormadi, chunki nogiron bola bilan boʻlib oʻtgan hodisa unga dars boʻlgan edi. U bu saboqni unutishni istamadi, “Agar bironing pichirlab yordam soʻrashini eshitishni xohlamasang, bir kun senga kelib teggan tosh koʻzingni ochishi turgan gap”, – deya fikrlagani bunga sabab boʻldi yangi avtomobil egasining.

NMZ Kadrlar boʻlimi mutaxassisi
Dilrabo RAHMATOVA talqinidagi
tarjima.

KONCHILAR HAYOTI

MUASSIS:
“NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI” AJ

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 4-fevralda 1521-raqam bilan qayta roʻyxatga olingan.

Muharrir:
Nizomiddin SADRIDDINOV



Tahririyat manzili:
210100.
Navoiy shahri, Navoiy koʻchasi, 27-uy,
“NKMK” AJ boshqarmasi
Telefonlar:
Muharrir: 79 227-74-64.
Faks: 79 227-75-66

Gazeta har oyda ikki marta chop etiladi va “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ, “Navoiyuran” DK, “NKMK jamgʻarmasi” DM boʻlinmalariga tarqatiladi. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazeta “Konchilar hayoti” gazetasi tahririyatida terildi va sahifalandi. “Noshir Lux” McHJ bosmaxonasida ofset usulida bosildi. Nashr sifati boʻyicha (91) 557-10-95 raqamli telefonga murojaat etishingiz mumkin. Bosmaxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen koʻchasi, 270-uy.

Navbatchi: Azamat ZARIPOV
Texnik muharrir: Zafarjon OLIMOV

Qogʻoz bichimi A2. 11200 nusxada chop etildi. Buyurtma № 059. 2026-yil 13-fevral 17:00 da chop etishga topshirildi.